



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



**BILINGVAL TERMINOLOGIYA VA TERMINLAR TARJIMASI
MASALASI**
**THE ISSUE OF BILINGUAL TERMINOLOGY AND TRANSLATION OF
TERMS**

G'aniyeva Lobar Sa'dulla qizi, f.f.b.f.d. (PhD)

Oriental universiteti katta o'qituvchisi

E-mail: ganiyevalobar29@gmail.com

ORCID: 0009-0000-9438-0603

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./IAWY1579](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./IAWY1579)

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat boshqaruvi sohasida qo'llaniladigan inglizcha terminlarning o'zbek tiliga tarjima jarayonida kuzatiladigan lingvistik muammolar, bilingval lug'at tuzishning nazariy asoslari va amaliy tamoyillari tahlil qilingan. Terminlarning morfologik, leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari qiyosiy o'rganilib, nominal va terminologik birliklarni farqlash mezonlari asoslab berilgan. Shuningdek, kalkalash va so'z o'zlashtirishning lingvistik farqlari, birikmali terminlarni tarjimalashtirishda semantik izchillikni ta'minlash, ekvivalent tanlashdagi kontekstual omillar yoritilgan. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida qo'llaniladigan ba'zi terminlarning struktur va pragmatik tafovutlari misollar asosida ko'rsatilib, termin tarjimasining aniqligi, izchilligi hamda standartlashuviga doir xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: bilingval terminologiya, termin tarjimasini, kalkalash, qiyosiy tilshunoslik, davlat boshqaruvi terminlari, semantik ekvivalentlik, morfologik moslik, pragmatik tafovut, bilingval lug'at, termin standartlashuvi.

Annotation. This article analyzes the linguistic challenges encountered in translating terms used in the field of public administration from English into Uzbek, as well as the theoretical foundations and practical principles of compiling bilingual dictionaries. The morphological, lexical-semantic, and pragmatic features of terms are examined from a comparative perspective, and the criteria for distinguishing between nominal and terminological units are substantiated. Furthermore, the linguistic differences between calquing and borrowing are discussed, semantic consistency in translating compound terms is ensured, and contextual factors in selecting equivalents are highlighted. The article provides examples of structural and pragmatic differences between English and Uzbek terms and presents conclusions regarding the accuracy, consistency, and standardization of term translation.

Keywords: bilingual terminology, term translation, calquing, comparative linguistics, public administration terms, semantic equivalence, morphological consistency, pragmatic differences, bilingual dictionary, term standardization



Tilshunoslikda tillarni qiyosiy tahlil qilish (comparative linguistics) turli tillar strukturalari, leksik birliklari va semantik tuzilmalarini taqqoslash orqali ular o‘rtasidagi farqli va o‘xshash jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Biroq amaliy jihatdan, xususan, davlat boshqaruvi, huquq yoki siyosat kabi sohalarda qiyosiy tilshunoslik va leksikografiya kesishmasida bilingval terminologiya va terminlar tarjimasini masalasi muhim rol o‘ynaydi. Negaki, bugungi ilm-fan taraqqiyoti natijasida turfa xil informatsiya (tushuncha) tashuvchi birliklar miqdorining sezilarli darajada oshishi ularni baynalmilal termin sifatida qabul qilish yoki tilning asliyatini saqlash maqsadida tarjimalashtirish (kalkalash) dolzarb masala sanaladi. Shuningdek, terminlarning izohli va bilingval lug‘atini yaratish borasida duch kelinadigan muammolarni bartaraf etish tilshunoslikning dolzarb masalasi sanaladi. Qolaversa, bilingval korpusning nazariy asoslari, aynan, tilning lug‘at sathi bilan bog‘liq. Bilingval lug‘atlar nafaqat tarjima, balki turli tillar orasidagi semantik, morfologik va pragmatik mosliklarini va farqli jihatlarni o‘rganishga imkon beradi.

Chog‘ishtirma tilshunoslikning terminologiya va leksikografiyaga doir masalalari xususida bugunga qadar bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.Sadikova, O.Tursunova, P.Nishonov, O.Ahmedov, D.Saidqodirova kabilarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega [Садыкова, 1998:74; Турсунова, 2006:26; Нишонов, 2009:52; Ахмедов, 2016:118; Саидқодирова, 2018:110].

Bilingval terminologiyada nominal va terminologik birliklarni bir-biridan farqlash muhim [Юдина, 2016:]. Ingliz tilidagi nominal birliklar o‘zbek tiliga, ko‘pincha, aynan, tarjimasiz, fonetik moslashuv asosida yoki so‘z birikmasi shaklida kalkalanib, ularni termin sifatida qabul qilinish hollari uchraydi. Ammo bu jarayonda nominal birliklarni terminologik birliklardan farqlash va aniq nazariy asoslar keltirilishi talab etiladi. Masalan ingliz tilida *president, minister, senator* kabi leksemalar ham nominal ham terminologik birliklar sanalsa, o‘zbek tilida esa, ular semantikasi va pragmatikasiga ko‘ra faqatgina terminologik birlik hisoblanadi.

Terminlarning izchil va standart tarjimasini tushunchaning shaffofligini ta’minlaydi va iste’mol qilinishi, ya’ni qo‘llanilish imkoniyatini oshiradi [Karimov, 2020:18]. Masalan, *directive/ ko‘rsatma, department/ departament (vazirlik tarkibiy qismi), development policy/ rivojlanish siyosati, audit/ audit, tekshiruv* kabi tarjimalashtirilgan terminlar ifoda etgan tushunchasiga aynan mosligi ularning pragmatik muqobil ekanligini aniq ko‘rsatadi. Tarjima strategiyasiga ko‘ra, terminlarning semantik va struktural xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Negaki, terminlar leksik birlik yoki sintaktik birlik holatida bo‘ladi. Birikmali terminlarni so‘zma-so‘z tarjima qilish ulardan anglashilgan tushunchaning to‘laqonli ifodasini topish imkoniyatini beradi. Masalan, davlat boshqaruvidagi umumiy boshqaruv terminlari *public sector-davlat sektori, strategic planning-strategik rejalashtirish, public policy-davlat siyosati* kabilari aynan mos va tushuncha ifodaviyligi, semantik jihatiga



ko'ra mutanosib. Tilshunoslikda terminlarni bu tartibda tarjimalashtirish kalkalash deb yuritiladi. “Qolaversa, kalkalash tilning sofligini saqlab qolishga bo'lgan ichki intilish, tartiblashgan va standartlashgan ilmiy terminlarni o'zlashtirishning nisbatan muqobil yo'llarining taraqqiy etishiga olib keladi” [Ширинова, 2017:108]. Bilingval terminologik lug'atlar yaratishda leksik va sintaktik birliklarni tarjimalashtirishda ishlatiladigan til birliklari o'zaro bir-biriga muvofiq bo'lmog'i lozim. Bilingval terminologik lug'atlar yaratishda va terminlarni tarjimlashtirishda semantik kalkalash muhim ahamiyatga ega. Negaki tarjima qilinayotgan terminologik birlik mohiyatan bir tushunchani anglatishi lozim. Jumladan, ingliz tilida *authority* termini semantikasiga ko'ra vakolatni nazarda tutadi, pragmatik xususiyati jihatidan esa, vakolatli shaxsga nisbatan ham, vakolatli organga nisbatan ham shu birlik ishlatiladi. O'zbek tilida *vakolatli shaxs* yoki *vakolatli organ* deb aniqlik kiritish talab etiladi.

Public-private partnership ingliz tilida infratuzilma loyihalari, moliyaviy sheriklik, xizmat ko'rsatish kabi turlicha pragmatik mohiyat kasb etadi, ya'ni kontekstlarga qarab mazmuni o'zgaradi. O'zbek tilida esa faqatgina *davlat-xususiy sherikchiligi* termini anglatgan tushunchani ifodalashga xizmat qiladi.

Semantik kalkalangan terminlar (bunda ma'no saqlangan holda, bir tildagi so'z ikkinchi tilga tarjima asosida ko'chiriladi) to'liq yoki yarim kalkalangan holatda bo'ladi. So'zma-so'z tarjima qilingan birliklar to'liq kalkalangan terminlar hisoblandi. A.Hojiyev kalkalashni so'z o'zlashtirishdan farqlaydi. “...tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanmay kalkalash, shu yo'l bilan yangi so'z hosil qilish mumkin emas. Tilning o'z imkoniyatlari ishga solinmasdan o'zga tildan so'z olinar ekan, bu hodisa so'z o'zlashtirish bo'ladi” [Ҳожиёв, 1989:31]. To'liq kalkalangan terminlarda tilning ichki qonuniyatlariga asoslaniladi. Masalan, ingliz tilida *qonun chiqaruvchi hokimiyat-legislative branch*, *ijro etuvchi hokimiyat-executive branch* deb yuritiladi. Bu ikki tildagi termin semantik xususiyatiga ko'ra bir tushunchani ifoda etsa-da, strukturasi jihatidan ikki xil. Ingliz tilida bu birliklar ikki komponentli termin, o'zbek tilida esa uch komponentli terminologik birlik. Demak, bilingval terminlar lug'ati tuzishda ularning semantik mutanosibligi struktur mutanosiblikdan ustun turadi [Юдина, 2016:88]. Xususan, *bill-qonun loyihasi*, *compliance-qonunchilikka muvofiq* kabi leksik birliklar bo'lgan termin tarjimlashtirilganda sintaktik birlik holatida bo'lishi bilingval terminologik lug'atlar yaratish uchun maqbul hodisa hisoblanadi. Shuningdek, bilingval terminologik lug'atlar yaratishda *bill (qonun loyihasi)*, *compliance (qonunchilikka muvofiqlik)* va *due diligence (ekspertiza)* kabi terminlarni kiritayotganda ularga izoh berilishi talab etiladi. Chunki bu kabi terminlar pragmatikasiga ko'ra ikki tilda ishlatilish doirasi va semantik ko'lami turlicha hisoblanadi.

Ingliz tilidagi *audit*, *budget*, *president department* kabilar aynan olingan va fonetik jihatdan moslashtirilgan. *Delegation of authority-vakolatlarni*



topshirish, consultation process-jamoatchilik fikri, data governance-ma'lumotlarni boshqarish bo'lib, davlat boshqaruvida, asosan, shakliy, vazifaviy va harakat tarzi o'xshashligi asosida o'zlashgan terminlar uchraydi.

A.Hojiyev kalkalashni so'z o'zlashtirishdan farqlaydi. "...tilning ichki imkoniyatlaridan foydalanmay kalkalash, shu yo'l bilan yangi so'z hosil qilish mumkin emas. Tilning o'z imkoniyatlari ishga solinmasdan o'zga tildan so'z olinar ekan, bu hodisa so'z o'zlashtirish bo'ladi" [Xo'jiev, 1989:31].

O'zbek tiliga tarjima qilinayotganda ularni faqat so'zma-so'z (literal) tarjima qilish yetarli bo'lmasligi mumkin, chunki terminlar tarjimasida semantik kenglikni saqlash va tushunchani tushunarli ifoda etish muhim.

Ba'zi terminlarga to'g'ridan-to'g'ri ekvivalent topish qiyin bo'ladi, chunki ma'no doiralari madaniyat, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy kontekstga bog'liq bo'ladi. Masalan, "*Regulatory Impact Assessment (RIA)*" terminiga o'zbekcha ekvivalent sifatida "*Tartibga solish ta'sirini baholash*" deb tarjima qilish mumkin, lekin bu tushuncha o'zbek tilidagi davlat boshqaruvida termin sifatida qo'llanilish darajasiga yetmagan. Chunki o'zbek tili terminlariga qo'yilgan ta'lablarga ko'ra ko'plab tilshunoslikka oid adabiyotlarda, terminologiyaga bag'ishlangan ilmiy manbalarda har qanday terminga so'z sifatida qaraladi. Lekin shuni hisobga olish kerakki, har qanday so'z termin bo'la olmaydi [Akobirov, 1968:4]. Terminni so'zdan farqlab turadigan asosiy xususiyati shuki, termin ko'pma'nolilik xususiyatiga ega bo'lmasdan, chegaralangan mazmundagi yagona ma'noni ifoda etadi. Terminlar so'zdan farqli emotsionallik va ekspressivlik xususiyatiga ega bo'lmaydi. Hattoki intonatsiya ham terminning ma'nosiga ta'sir etmasdan, uning termin ekanlik darajasini yanada oshiradi. *Regulatory Impact Assessment (RIA)* termini o'zbek tiliga *Tartibga solish ta'sirini baholash* shaklida tarjima qilinganda termin emas, jumlagi teng struktura va mazmun ifodalaydi, bunga sabab ingliz tilidagi bir tarkibli *regulatory (tartibga solish)* birligi o'zbek tiliga tarjima qilinganda ikki tarkibli birlikka aylandi. O'zbek terminologiyasining ilmiy mulohazalariga ko'ra birikmali terminlarda komponentlar sonining ortishi uning terminlilik darajasiga ta'sir qiladi va termin sifatida mohiyatini yo'qotadi. Qolaversa, morfologik xususiyatiga ko'ra terminlarning aksariyati ot so'z turkumidagi birliklar bilan ifodalanadi, fe'lli yoki fe'l birikmali terminlar esa ot vazifa shakliga o'tkazilishi talab qilinadi. Masalan, *legal identity / yuridik shaxs, shaxs identifikatsiyasi; Civil status document/ fuqarolik holati hujjati*", *civil registration / fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga olish, vital records system / fuqarolik holati dalolatnomalari tizimi*, kabi terminlarda so'zma-so'z tarjima aynan mos tushmasligini hamda o'zbek va ingliz tilining terminologik qatlami o'ziga xosligini ko'ramiz. Ingliz tilida so'zma-so'z aytilganda fuqarolik holati *civil status* deb yuritiladi, ammo *civil registration* terminida birgina *civil* so'zining o'zi o'zbek tilidagi *fuqarolik holati* birkmasi anglatadigan tushunchani akslantiradi va *status* so'ziga ehtiyoj qoldirmaydi (*civil status registration* ayrim o'rinlarda matn talabiga ko'ra ehtiyoj bo'lsa ishlatiladi). O'zbek tilida esa *holati*

so'zining hamisha birga ishlatilishi semantik jihatdan talab qilinadi. Chunki, shu birlik tushib qolsa, termindan anglashiladigan tushunchaning mazmuni va mohiyati o'zgaradi. Ma'no torayib, faqatgina fuqarolikni anglatadi. Fuqarolik holati tartibida ishlatilganda fuqarolikka tegishli barcha holatlar (tug'ilish, nikoh, o'lim, ajrim kabilar) nazarda tutiladi. *Vital records system* termini ham ingliz tilidan o'zbek tiliga so'zma so'z tarjima qilinganda butulay kutilmagan mazmun ifodalaydi (*hayotiy yozuvlar tizimi*). Ammo birikma holatida termin vazifasini bajaradi. Bu borada O.Axmedov qarashlariga ko'ra, tarjima qilish jarayonida so'z va terminlarning eng optimalini tanlashda matniy holat nuqtayi nazaridagina emas, shuningdek, ularni lekis-semantik, grammatik va stilistik jihatdan ham muvofiqlashtirish samarali natija beradi [Axmedov, 2016:161].

Xulosa shuki, bilingval terminologiyada terminlarning tarjimasi aniq bo'lishi, semantik jihatdan bir tushunchani anglatishi, stilistikasiga ko'ra bir uslubda ishlatilishi va morfologik va sintaktik jihatdan ham mos va muvofiq bo'lishi tarjimaning mukammal amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev A. Qiyosiy tilshunoslikka kirish. Toshkent: Fan, 2019.
2. Ақобиров С. Ф. Тил ва терминология. – Тошкент: Ўзбекистон, 1968.
3. Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима масалалари: филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2006.
4. Ҳожиёв А. “Термин элементлар” ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1989. № 6.
5. Jumaniyozova N. O'zbek tilida davlat boshqaruvi terminlari tizimi. Toshkent: Zamin Nashr, 2021.
6. Karimov M. Ingliz tilidan o'zbek tiliga terminlar tarjimasining lingvistik asoslari. Toshkent: Turon-Iqbol, 2020.
7. Нишонов П.П. Франсуз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий типологик тадқиқи. Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2009.
8. Саидкодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. б. фалс. док. дисс. – Тошкент, 2018.
9. Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов. Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998.
10. Ширинова Е. Ўзбек тили банк-молия терминологиясида калка // Ўзбек тили ва адабиёти, 2017. № 2.
11. Гурсунова О. Ўзбек давлатчилиги тарихида қўлланган ҳуқуқий терминларнинг лисоний таҳлили. Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 2006.



12. Юдина Е.А. Билингвальная терминография: теория и практика. Санкт-Петербург: СПбГУ, 2016.
13. I A O‘razova Death” in Navoyi “Khamsa”/International Congress of Postgraduate Students from Altai to Anatolia. 2024. P. 28-30
14. KOMILOVA, G. (2025). PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA QADRIYATLAR IERARXIYASINING AKS ETISHI. Modern Science and Research, 4(5). Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/102978>
15. Muhammadiyeva D. “Boburnoma” lug‘atlarining leksikografik talqini. Vol. 3 No. 3 (2025): O‘ZBEKISTON: TIL VA MADANIYAT. Lingvistika.
16. MUHAMMADIYEVA, D. Boburnoma” ning o ‘zbekcha-turkcha-qozoqcha parallel korpusini yaratishda tarjima muammolari Translation problems in creating the Uzbek-Turkish-Kazakh parallel corpus of “Boburnoma. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O ‘RNI, 190.
17. Qahharova S. TEZAVURUSNING SEMANTIK TAHLILLARDAGI O ‘RNI //Oriental Conferences. – OOO «SupportScience», 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 446-452.
18. Shamsieva M. EXPERIMENTAL STUDY OF SPEECH DEVELOPMENT IN BILINGUAL CHILDREN. ACADEMICIA An International Multi disciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) DOI: 10.5958/2249-7137.2021.01845.0 ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8, August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492
19. РАШИДОВА, Н. (2021). THESAURUS LEXEMES OF THE EDUCATIONAL SPHERE. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 33-43.
20. <https://cdn.uza.uz/2022/05/20/07/06/iSDRDqzFkFh20mbv3oCiWKbFawZCQ63p.pdf>
21. Z Xolmanova SUN’IY INTELLEKT: BORIS - COMPUTER LINGUISTICS: PROBLEMS, SOLUTIONS ..., 2023
22. X M. «Qutadg‘u bilig»dagi aforizmlar semantikasi ЎзМУ хабарлари, 306-308
23. B Abdushukurov, L Sindorov The Phenomena Of Semantic Widening And Narrowing In “Hibatul-Hakayik” - THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE ..., 2020
24. Umurzakova M. The age factor in the formation of a linguistic personality https://www.researchgate.net/publication/361667526_The_age_factor_in_the_formation_of_a_linguistic_personality?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnN0UGFnZSI6InByb2ZpbGUiLCJwYWdlIjoicHJvZmlsZSJ9fQ